

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIY POTENSIALI	38-43
---	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

THE KEY REGION OF THE UZBEKISTAN ECONOMY: FERGANA REGION AND ITS ECONOMIC SECTORS

Egamberdiyev Muzaffar

Acting Associate Professor, Faculty of Economics (PhD),
Alfraganus University
E-mail: 20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirkhonovich

2nd-year student, Economics (Branches and Sectors) Program,
Alfraganus University
E-mail: abubakr11@bk.ru

Abstract. This article analyzes the role of Fergana region in the economy of Uzbekistan, its main economic sectors and strategic importance. The potential of Fergana in the industrial, agricultural and service sectors, as well as the issues of effective use of regional infrastructure and labor resources are covered. The article is based on economic and statistical data, analytical approach and scientific sources.

Keywords: Fergana region, economic development, industry, agricultural sector, economic sectors, economy of Uzbekistan.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI

Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus Universiteti Iqtisodiyot fakulteti dotsent v.b. (PhD)

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus Universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni, uning asosiy iqtisodiy tarmoqlari va strategik ahamiyati tahlil qilingan. Farg'onaning sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi salohiyati, shuningdek, mintaqaviy infratuzilma va mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqola iqtisodiy-statistik ma'lumotlar, tahliliy yondashuv va ilmiy manbalarga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, iqtisodiy rivojlanish, sanoat, agrar soha, iqtisodiy tarmoqlar, O'zbekiston iqtisodiyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N04>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi hududiy tuzilish jihatdan 12 viloyatni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, O'zbekistonning har bir viloyati mamlakat milliy iqtisodiyotiga turli iqtisodiy tarmoqlar orqali o'ziga xos hissa qo'shadi. Masalan, poytaxt Toshkent — moliyaviy va xizmat ko'rsatish markazi, Toshkent viloyati — sanoat va logistika markazi, Navoiy viloyati esa — konchilik va og'ir sanoat markazi va Samarqand o'zining — turizm salohiyati, bog'dorchilik, yengil sanoati bilan munosib hissa qo'shadi. Hamda boshqa viloyatlar ham bevosita neft-gaz,

chorvachilik, bug'doychalik, paxtachilik, avtomobilsozlik va to'qimachilik bilan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida o'z mavqeyini belgilagan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu tarmoqlar viloyatlarning tabiiy resurslari, iqlim sharoiti, aholi zichligi va infratuzilmasiga qarab shakllangan. Bu borada Farg'ona viloyati respublika iqtisodiyotining tayanch hududlaridan biri hisoblanadi. Uning qulay tabiiy-iqlim sharoitlari, boy tabiiy resurslari, zich aholi soni va rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi viloyatning ko'p tarmoqli iqtisodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining iqtisodiyotdagi o'rni, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Farg'ona viloyatining iqtisodiy-geografik tavsifi ham boshqa viloyatlardan farqliligi bilan ham ajralib turadi. Farg'ona viloyati O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Farg'ona vodiysi tarkibiga kiradi. Aholi soni bo'yicha yurtimizda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Farg'ona viloyati doimiy aholi soni 4 014 800 kishini tashkil etgan. Shundan, shahar aholisi 2 285 400 kishini, qishloq aholisi esa 1 729 400 kishini tashkil etdi. 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra esa, Farg'ona viloyatida doimiy yashovchi aholi soni 4 123 600 kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 2,1 foizga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 344 000 kishini, qishloq aholisi soni esa 1 779 600 kishini tashkil etdi. Shu o'rinda aholi ko'payishi hududda mehnat resurslarining seroblighi va iste'mol bozorining kengligidan dalolat beradi [2].

Muhokama va natijalar. Farg'ona viloyati O'zbekiston sanoat xaritasida alohida o'rin tutadi. Bu hudud yirik sanoat salohiyati, yetarli infratuzilma, mehnat resurslari va qulay geografik joylashuvi bilan ajralib turadi. Quyida viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari haqida batafsil ma'lumot beriladi:

Neftni qayta ishlash sanoati — Farg'ona viloyatining sanoat salohiyatida eng yirik ulushni neft-kimyo tarmog'i egallaydi. Viloyatda joylashgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (FNQIZ) — Markaziy Osiyodagi eng yirik neftni qayta ishlovchi sanoat korxonalaridan biridir. Ushbu zavod yillik o'nlab million tonna neft xomashyosini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lib, benzin, dizel yoqilg'isi, moylash materiallari, asfalt va boshqa yonilg'i-tarmoqlarni ishlab chiqaradi.

FNQIZ viloyat iqtisodiyotiga katta hissasini qo'shibgina qolmay, minglab fuqarolarni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlaydi, eksport salohiyatini oshiradi va boshqa kimyo hamda texnologik ishlab chiqarishlar uchun xomashyo bazasini yaratadi. Hamda benzin, dizel yoqilg'isi, moylash materiallari, asfalt va boshqa yonilg'i-tarmoqlarni ishlab chiqaradi [3].

Farg'ona viloyatida kimyo sanoati keng tarmoqda rivojlangan. Bu yo'nalishda yirik korxona — "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati yetakchilik qiladi. Mazkur korxona ammiak, karbamid, nitratli o'g'itlar, texnik gazlar (azot, kislorod), sanoat uchun xomashyo ishlab chiqarish bo'yicha respublika ehtiyojining katta qismini ta'minlaydi. Mahsulotlar faqat ichki bozorga emas, balki qo'shni davlatlarga ham eksport qilinadi. Viloyatda to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Bu sohaga xususiy sektorning faol kirib kelishi, klaster tizimining joriy etilishi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning kengayishi turtki bo'ldi. Asosiy yo'nalishlar paxta tolasi va mato ishlab chiqarish, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari, charm-poyabzal mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlarining eksporti (Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy va boshqalar) [4].

Farg'ona viloyatining Quva, Qo'qon, Buvayda va Marg'ilon hududlarida yirik to'qimachilik fabrikalari faoliyat olib bormoqda. Mashinasozlik va metallga ishlov berish — Mashinasozlik sohasi Farg'onada kichik va o'rta korxonalar bazasida rivojlanmoqda. Ayni vaqtda aytish o'rinliki, Farg'onaning yirik shaharlaridan hisoblangan Qo'qon va Rishtonda bu sohada faoliyat yurituvchi ko'plab kichik sanoat zonalar mavjud. Qurilish materiallari ishlab chiqarish — Qurilish materiallari sanoati viloyatda ko'plab loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Issiqlik izolyatsiya materiallari, g'isht, sement, temir-beton mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ushbu soha aholining uy-joy qurilishi, infratuzilma modernizatsiyasi va davlat dasturlaridagi talablarni qondirishga xizmat qilmoqda.

Agrar salohiyatning yuqoriligi sababli Farg'onada oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati ham rivojlangan. Bu sohada faoliyat yurituvchi korxonalar meva-sabzavot konservasi, sharbatlar va kompotlar, qandolat va non mahsulotlari, go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Qo'qon, Quva va Farg'ona shahrida zamonaviy qadoqlash liniyalari bilan jihozlangan zavodlar mavjud [5].

So'nggi yillarda viloyatda elektrotexnika sanoati shakllanib bormoqda. Elektr kabellari, maishiy texnika qismlari, LED chiroqlar, transformatorlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar ochilmoqda. Bu soha xususiy sektor va xorijiy investorlar e'tiborida. Farg'ona viloyatida qishloq xo'jaligi va agrar sektor: rivojlanish yo'li — Farg'ona viloyati O'zbekistonning eng serhosil agrar hududlaridan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysining suv resurslariga boyligi, unumdor yerlar, tog' va vodiylar iqlimining uyg'unligi qishloq xo'jaligi uchun juda qulay sharoit yaratgan. Bu yerda qadimdan dehqonchilik, bog'dorchilik, paxtachilik, chorvachilik va tokchilik kabi tarmoqlar rivojlangan [4].

Viloyat paxta yetishtirish bo'yicha respublika yetakchilaridan biri. Xom paxta nafaqat yengil sanoat, balki eksport uchun ham muhim manba. G'alla, ayniqsa bug'doy yetishtirish — oziq-ovqat xavfsizligi uchun asosiy omil. Intensiv usullar ham joriy qilinmoqda. Quva, Rishton, Oltiariq kabi tumanlarda meva-sabzavot yetishtirish keng rivojlangan. Shu qatorda: anor, uzum, olma, anjir, shaftoli kabi eksportbop mahsulotlar yetishtiriladi. Sabzavotchilik va polizchilik sohasida viloyat mahalliy bozorni to'liq ta'minlaydi, bir qismi Rossiya, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi. Ushbu hududda go'sht, sut mahsulotlari ishlab chiqarilishi qishloq xo'jaligi klasterlari doirasida kengaymoqda. Qoramol, qo'y, parranda boqish ham rivojlangan.

So'nggi yillardagi ijobiy yangilanish va viloyatlar kesimidagi modernizatsiya qarorlari orqali Farg'ona viloyatida agrar sohani modernizatsiya qilish bo'yicha bir necha bosqichda ishlar amalga oshirilmoqda:

1-bosqich (2017–2020 yillar). Qishloq xo'jaligida klaster tizimi joriy qilindi.

Sug'orish tizimlarini tiklash va avtomatlashtirish bo'yicha dastlabki loyihalar boshlandi. Qishloq xo'jaligi texnikasi parki yangilandi.

2-bosqich (2020–2023 yillar). Raqamli texnologiyalar (GPS nazorat, onlayn monitoring, elektron xaritalar) joriy qilindi. Kooperatsiyalar va agrosanoat klasterlari kengaytirildi. Issiqxona xo'jaliklari (zamonaviy tipdagi) faoliyat olib bormoqda. "Fermar – logistika – eksport" zanjiri yo'lga qo'yildi.

3-bosqich (2023–2024). "Aqlli qishloq xo'jaligi" (smart farming) elementlari joriy qilinmoqda. Quva Agrologistika markazi, yirik sovitkichli omborlar, zamonaviy qadoqlash

liniyalari barpo etilmoqda. Agrotexnoparklar va eksportga mo'ljallangan dehqon xo'jaliklari soni ortmoqda. Xalqaro grantlar asosida tomchilatib sug'orish tizimlari keng joriy etilmoqda.

4-bosqich. Bugungi holat (2024–2025 yillar). Farg'ona viloyati meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi hududlar qatorida. Agrologistika zanjiri to'laonli shakllanmoqda: yetishtirish – saqlash – qadoqlash – eksport. Suvdan tejab foydalanish masalalari davlat va xalqaro tashkilotlar nazoratida. Ko'plab fermer xo'jaliklari sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini sinovdan o'tkazmoqda. Xalqaro bozorlar bilan shartnomaviy hamkorliklar faollashgan. So'lim va navqiron Farg'ona yuqoridagi tarmoqlardan tashqari, Xizmat ko'rsatish sohasi va infratuzilmasini ham muhim iqtisodiy tarmoq sanab, unga ham alohida e'tibor qaratadi. Savdo, transport, aloqa va ta'lim tizimi viloyatda barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Dastlab ushbu tushuncha shuni anglatadiki, Xizmat ko'rsatish sohasi har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o'rin tutadi. Bu soha nafaqat aholiga qulaylik yaratadi, balki bandlik, daromadlar, infratuzilma va investitsiya oqimini rag'batlantiradi. Farg'ona viloyatida ham xizmatlar sektori so'nggi yillarda jadal o'sib, zamonaviy infratuzilma bilan uyg'unlashmoqda [3].

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining eng yirik va strategik jihatdan muhim iqtisodiy hududlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy, tabiiy va demografik omillar bu viloyatni mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinlardan biriga olib chiqqan. Bugungi kunda Farg'ona viloyati o'zining sanoat salohiyati, agrar resurslari, xizmatlar sohasi va zamonaviy infratuzilmasi bilan O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining tayanch ustunlaridan biri sanaladi.

Avvalo, viloyatning sanoat tarmoqlari mamlakatdagi eng muhim ishlab chiqarish yo'nalishlarini o'z ichiga olgan. Neftni qayta ishlash, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik va elektrotexnika sohalari Farg'onani iqtisodiy tayanch markazga aylantirgan. Xususan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi va "Farg'onaazot" kabi yirik korxonalar nafaqat viloyat, balki butun respublika sanoati uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu korxonalar yillik o'nlab millionlab mahsulot ishlab chiqarib, eksport va ichki bozorni barqaror ta'minlab kelmoqda [2].

Bundan tashqari, viloyat agrar sektori ham yuksak darajada rivojlangan. Paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik va tokchilik Farg'ona vodiysining iqlimiga moslab rivoj topgan tarmoqlardir. So'nggi yillarda ushbu tarmoqlarda modernizatsiya ishlari amalga oshirilib, tomchilatib sug'orish, issiqxona xo'jaliklari, agrologistika markazlari, qadoqlash texnologiyalari kabi zamonaviy yondashuvlar joriy etildi. Fermerlik xo'jaliklarining kooperatsiyasi, raqamli monitoring tizimlari va eksportga yo'naltirilgan mahsulot yetishtirish orqali qishloq xo'jaligining samaradorligi keskin oshdi.

Xizmat ko'rsatish sohasi esa viloyat iqtisodiyotining uchinchi ustuni sifatida rivojlanmoqda. Savdo, turizm, moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi yo'nalishlarda ko'plab yangi obyektlar, xizmat ko'rsatish zonalari va elektron xizmat tizimlari joriy qilindi. Viloyatda zamonaviy savdo majmualari, mehmonxonalar, tibbiyot markazlari va bank texnologiyalari mavjud bo'lib, ular aholiga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'ygan. Raqamli xizmatlar, mobil ilovalar va "smart city" elementlarining joriy etilishi xizmatlar sektorini yanada ilg'or bosqichga olib chiqmoqda [5].

Bularning barchasi, albatta, infratuzilma rivoji bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda Farg'ona viloyatida transport, yo'l, energetika, kommunal va axborot texnologiyalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Aeroport, temiryoʻl stansiyalari, avtomobil yoʻllari, yoʻlovchi transporti va internet tarmoqlari yangilanib, aholining harakat va aloqa imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Hududlarda yangi sanoat zonalari, servis markazlari va logistika markazlari faoliyat boshladi. Demografik jihatdan Fargʻona aholisi koʻp sonli va mehnatga layoqatli yoshlar ulushi yuqori boʻlgan viloyatlardan biridir. Bu esa mehnat bozori uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ochilishi, kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash siyosati, mahalliy va xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay muhit Fargʻonani iqtisodiy taraqqiyotda barqaror va istiqbolli hududga aylantirmoqda [3].

Xulosa. Umuman aytganda, Fargʻona viloyatining iqtisodiy rivojlanish bosqichlari koʻp tarmoqli va kompleks xarakterga ega boʻlib, u sanoat, qishloq xoʻjaligi, xizmatlar sohasi va infratuzilmaning bir-birini toʻldiruvchi va mustahkamlovchi rivoji orqali namoyon boʻlmoqda. Bu jarayonlarda modernizatsiya, raqamlashtirish, innovatsiya, eksportga yoʻnaltirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim omillar ustuvorlik kasb etmoqda.

Fargʻona viloyati hozirgi kunda Oʻzbekiston iqtisodiy tizimining tayanchi, ishonchli eksport va ishlab chiqarish bazasi, agrar salohiyatli markazi va xizmatlar tarmogʻining zamonaviy yetakchisiga aylangan. Kelgusida viloyatning bu salohiyati yanada mustahkamlanishi, hududlararo iqtisodiy integratsiyada ham muhim oʻrin tutishi kutilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.04.2022-yildagi 221-sonli “2022 — 2026-yillarda Fargʻona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari – www.stat.uz
3. Fargʻona viloyati hokimligi rasmiy sayti – www.fergana.uz
4. Hakimov R. Iqtisodiy geografiya asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020.
5. Qodirov I. Oʻzbekiston iqtisodiyoti: hududiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2021.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).